

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## THE IMPORTANCE OF CREATIVE TASKS IN THE LEARNING OF ENGLISH BY PRESCHOOL CHILDREN.

Murodimova Zarina

Do'smatova Umida

JDPU Maktabgacha Ta'lim fakulteti

Email address [zarinamurodimova@gmail.com](mailto:zarinamurodimova@gmail.com).

Tel nomer : +998911989930.

**Anotatsiya :** bolalarga ingliz tilini o'rgatishda ijodiy o'yinlarning ahamiyati, hamda ingliz tilini o'rgatishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish haqida fikirlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** zamonaviy metodlar, ijodiy o'yinlar, texnologiya, aqliy va jismoniy harakatli o'yinlar, ko'rgazmali usullar.

**Anotation :** The importance of creative games in teaching English to children, as well as the use of innovative technologies in teaching english.

**Keywords:** Modern methods, creative ideas, technology, mental and physical movement ideas, visual methods.

Hozirgi kunga kelib yurtimiz yoshlarining ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari juda ham ortib bormoqda sababi yoshlarimiz o'rtasida chet tilga bo'lgan etiborning yuqori darajada ekanligidir. Ingliz tilini nafaqat ingliz tili balki boshqa chet tillarini qachondan boshlab o'rganish mumkin ? Ingliz tilini bugungi kunga kelib makrablarda kollej va litseylarda va hattoki maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab o'rgatish tizimi joriy etildi.Maktabgacha yosh davir bu shunday yosh davri hisoblanadiki 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar juda ham qiziquvchan va xotirasi mustahkamligi sababli barcha ma'lumotlarni tezlik bilan yodlab oladilar, va ularning xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili o'qituvchisi bolalarga ingliz tili mashg'ulotlarini o'tganda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ilotni tashkil etishi kerak bo'ladi ,bu nima uchun kerak? Sababi bolalarning diqqat e'tiborni tarbiyachi 20 yoki 25 daqiqa o'ziga jalb qilishi mumkin shuning uchun bolaga qiziqarli bo'lgan metodlardan , bir necha hil usullardan foydalanishi talab etiladi , Bolalar e'tiborni jalb qilish uchun albatta tarbiyachining o'zi ham barcha bilim ,ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi o'z fani yuzasidan barcha malumotlarni to'laqonli bilishi , bolani sevishi , o'z kasbiga yuksak e'tibor bilan yondashishi lozim hisoblanadi.Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili mashg'ulotlarni o'tishda tabiyachi mashg'ulotga kerakli bo'lgan ko'rgazmali

qo'rollardan unumli foydalanishi ,ko'rgazmali qo'rollar guruh tarbiyalanuvchilar soniga yetarli miqdorda bo'lishi va foydalanishga qulay bo'lishligi kerak. Masalan kichik va o'rta guruh bolalariga ingliz tilini o'rgatishda qiziqarli bo'lgan amaliy o'yinlardan , jismoniy harakatlardan foydalanish kerak ya'ni ularga sanoq sonlarni o'rgatmoqchi bo'lsak ularga sonlarni qo'shiq yoki sher qilib o'rgatishimiz mumkin kuyga solib ijro etsak bolaning diqqatini bir zumda jalb qilish mumkin. Bndan tashqari ingliz tili alifbosini ham shu tarzida o'rgatsak juda ham yaxshi samara beradi va mashg'ulotning yanada qiziqarli o'tishiga yordam beradi. Katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini o'rgatishda bir necha hil didaktik o'yinlardan , aqliy va jismoniy harakatli o'yinlardan foydalangan maqul chunki ular kichik va o'rta guruh bolalariga qaraganda ham aqlin va jismonana kuchli rivojlangan bo'ladi ,ular bemalol ingliz tilde ancha so'zlarni biladigan ingliz tilidagi lug'at boyligi ancha yaxshi rivojlangan bo'ladi va hattoki kichik kichik diyaloglar ham tuzushlari mumkin. Masalan o'zlarini tanishtirishi (my name is umida , what is your name) kabi so'zlarni duslariga berishlari mumkin bo'ladi .Katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini o'rgatishda didaktik , aqliy, talimiy o'yinlarni tashkil qilish orqali o'rgatish mumkin Masalan ;bolalarda chaqqonlikni tezkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlardan biri bo'lgan amaliy mashg'ulotlardan "kim chaqqon" o'yinini o'ynashimiz mumkib bunda tarbiyachi guruh bolalarini ikki kichik guruhga teng tahsimlab har ikkala guruhdan bittadan ishtrokchi chiqaradi va stol ustidagi rangli qog'ozlarni tarbiyachi ingliz tilida qanday nomlanishni bollarga yaxshilab tushuntiradi va bolalar ranglarni qanchalik yaxshi yotlaganini aniqlab olish uchun rangni ingliz tilida aytadimasalan ( red )deb aytadi va usha rangni bilgan bola darhol qizil ekanligini tushunadi rangni qo'liga olishlari kerak bo'ladi .va bolalar joylarga tezlik bilan utrib oladilar va keyngi ishtrikchular yugurib boradilar va tarbiyachi yana shu holatni takrorlaydi o'yin shu holda davom etadi o'yin yakunida har ikkala giruhda qancha rang yig'ilganligi aniqlanadi va bolalarni rag'batlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib tashkil etish maqsadga muvofiqdir kichik va o'rta guruh bolalariga mashg'ulotga mos vidyoroliklarni qo'yib berishimiz yoki mavzuga hos multafilimlarni ham qo'yiv berishimiz mumkin. Bolalar multafilimlarni tushunmasada ulardagi qahramonlarning so'zlarini avtomatik tarzida yodlab oladilar va ularning lug'at boyligini oshirishida yordam beadi. Bolalarga ingliz tilini o'rgatishda foydalanadigan metidlarni va mavzuni eng avvalo bolaning yosh hususiyatlarni hisobga olishimiz kerak masalan kichuk guruh bolaga amaliy ijodiy o'yinlarni bolaga bir oz murakkablik qiladi va yoki so'zlarni talaffuz qilish jarayinida so'zlari tiniq chiqmasligi mumkin .Tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini ijogiy o'tinlar orqali ham orgatish mumkin bundatarbiyachi bolalarga mushuk tasviri tushurilgan rasm beradi va bolalar mushukni rangli qalamlar bilan o'zi tasavuridagu mushukni bo'yashi kerakligini tushuntiradi va bolalar rasmnu

bo'yashgach ularni qanaqa ranga bo'yaganliklarini ingliz tilida aytadilar. Bundan tashqari tana azolarini ham ingliz tilida aytish mumkin bunda avval tarbiyachi bolalaga tana azolari haqidagi mashg'ulotlarni to'liq bolalarga o'rgatgan bo'lishi kerak . Keyingi mashg'ulotlarda tariyachi bolalar bilan avvalgi o'tgan mashg'ulotlarda olgan bilimlarni mustahkamlashlari mumkin. Darsning sifati tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog'liq mashg'ulot jarayonida tarbiyachi barcha bolalar bilan birga ishlashi bolalar o'rtasida jamoa bo'lib ishlash kunikmasini shakillantirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M . Mirziyayev 2017- 2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori T 2016 yil 29 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Makatabgacha ta'lim to'g'risidagi nizom maktabgacha tarbiya T 2000 1 son.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'tish texnologiyasi. Qullanma T 2021 yil .
4. Kchik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish qu'llanma Toshkent 2021 yil. 1 nashr.